

O'ZBEKISTONNING DAVLATLARI TARIXI

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute talabasi

Abdullayev Ramazon

Email: ramazonabdullayev872@gmail.com

Denov tadbirkorlik va Pedagogika institute talabasi

Musulmonqulov Akbar

Email: akbarbekakbar89@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute talabasi

Yo'ldoshev Sunnat

Email: yoldoshevsunnat806@gmail.com

Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti talabasi

Norqulov O'lmas

Email: norqulovolmas559@gmail.com

Denov tadbirkorlik va Pedagogika institute talabasi

Xo'shboqov Farrux

Email: farruxxushbaqov46@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar Baqtriya, Xorazm, Dovon, Sug'd, kabi davlatlarning tashkil topishi va bu davlatlar haqida yunon rim manbalarida keltirilgan ma'lumotlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: "Ming irmoqli daryo", "Amirobod madaniyati", Baxdi, Baxlika 'Qumbosganqal'a, "So'g'da", "So'guda" "Yasht" "Toshxirmon, "Gava", Arshayyona.

Eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi 4-ming yillikda Ikki daryo oralig'ida (Mesopotamiya) va qadimgi Misrda paydo bo'ldi. Bundan 10 ming yillar ilgariyoq bu erda termachilik va ovchilik asosida ekinlarni etishtirishga va yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish - chorvachilikka o'tish boshlanadi. Asta-sekinlik bilan dehqonchilik bu erdan qo'shni hududlarga (Kavkazorti, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoyga) tarqaladi. Miloddan avvalgi 3-2-ming yillikdayoq Qadimgi Sharq mamlakatlari o'rtasida qalin tarixiy-madaniy aloqalar mavjud edi.

Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatmoqdaki, miloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalarida O'zbekiston (Surxon vohasi)da qadimgi dehqonchilik madaniyati rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlanadi. Bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishining o'ziga xos xususiyat va qonunlarga ega edi.

O'rta Osiyoda dastlabki davlat uyushmalari ham dehqonchilik vohalari aholisini chetdan bo'ladigan bosqinchilardan himoya qilish va jamoadagi munosabatlarni huquqiy boshqarib turish kabi holatlar natijasida tashkil topdi

Yunon-fors urushlari boshlanishi bilan miloddan avvalgi VI - IV asrlar siyosiy voqealarida ishtirok etgan. O'rta Osiyo xalqlarining tarixi qadimgi yunon tarixshunoslarning asarlarida yoritilgan. Bu borada O'rta Osiyo xalqlari to'g'risida qisqa bo'lsa-da, juda aniq ma'lumotlar beruvchi Gerodotning «Tarix» kitobi qismlari ayniqsa qimmatlidir. Qadimgi davrlardan boshlab bu kitob dunyoda eng mashhur tarixiy asarlardan biri bo'lib hisoblangan. Uning muallifi Gerodot «tarixning otasi» deb nom olgan. Mouri Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Marg'iyona erlari Murg'ob vohasi, So'g'diyona - Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, Baqtriya (Baqtriya) - Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismi, Janubiy Tojikiston va Surxondaryo viloyati, Xorazm - Amudaryoning o'rta va quyi qismidagi erlarini o'z ichiga olgan.

Saklar O'rta Osiyo va Qozog'istonning tog'lari, dashtlari va cho'llarida yashagan ko'chmanchi chorvador qabilalaridir. Ahamoniylar yozuvlarida saklar quyidagi guruhlariga bo'lingan: saka tigraxauda «tigra» - bu «o'tkir», xauda - «bosh kiyim», «saka-xaumovarka» - «xaomani ulug'lagan saklar» («xaoma» - «iuqaddam ichimlik»), «saka tiay darayyo» - «daryo, dengiz narigi yog'idagi saklar». Saklarning yodgorliklari - qadimgi qabristonlar va mozor - qo'rg'onlar juda keng hududda topib tekshirilgan (Kaspiy, Orol dengizi atrofidan Balxash ko'ligacha, pomir va Tangritog' o'lkalarida, Quyi Zarafshon, Amudaryo, Sirdaryo erlarida). Saklar xo'jaligida chorvachilik ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu kabilar qoramol mayda chorva hamda otni ko'plab urchitganlar. Saklarning yodgorliklarida bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar, zeb-ziynat, mehnat qurollari va sopol idishlar uchraydi.

XIX asrning oxiridan boshlab oldingi yillar jahon tarixshunosligida O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi muammolarini o'rganishda «Avesto»dagi ma'lumotlar, Gekatey va Gerodot asarlari, shuningdek, tarixshunos Ktesiyning ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qildi.

Ilmiy adabiyotlarda O'rta Osiyoda ahamoniylar davrigacha mavjud bo'lgan quyidagi davlat uyushmalari haqida so'z yuritganlar.

1. Arshayyona - O'rta Osiyodagi qadimgi viloyatlarning uyushmasi;
2. Ayyornam Vayjo - bu ham Aryoshayyonadek yoki uning markazi Ariya va Marg'iyonada bo'lgan «Katta Xorazm» yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati;
3. Qadimgi Baqtriya davlati.

Ba'zi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ahamoniylar davridan oldin xorazmliklar Parfiya chegaralaridan sharqiy yo'nalishda Kopetdog' yonbag'irlarida

Kir II O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarini istilo qilib, shu erning bir qismi aholisini yurtimizning shimoliy viloyatlariga siqib chiqarish mumkin edi, ammo Qadimgi Xorazm davlatining vujudga kelishi turli murakkab madaniy, etnik va siyosiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ahamoniylar davridan oldingi zamonlarda boshlangan. O'zbekistonning turli viloyatlarida arxeologlar qadimgi shahar xarobalarni topib

tekshirdilar. Ko'plab arxeologik topilmalarning dalolat berishicha, bu shaharning ba'zilarning yoshi 2700 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob (Samarqand), Qiziltepa (Surxon vohasi), Uzunqir, Erqo'rg'on (Qashqadaryo vohasi) va boshqalar kiradi. Bu qadimiy shaharlar tarixi hozirgi Samarqand (Afrosiyob, Marokanda), Kitob-Shahrisabz (Uzunqir) yoki Qarshi (Erqo'rg'on) hududlarida davom etdi. Ya'ni, O'zbekistonning ko'pgina zamonaviy shaharlari ancha qadimgi shaharlar tarixi bilan yaqin aloqadorlik ko'zga tashlanib turibdi.

Eng qadimgi shaharlarga xos umumiy belgi ularning mudofaa devorlari bilan o'ralganligidir. Devorlar suv to'ldirilgan chuqur xandaq bilan o'ralgan bo'lib, bu mudofaa tizimi ancha mustahkam edi. Ilk davlatlarning tashkil bo'lishida, jamiyat rivojining ichki qonuniyatlaridan tashqari (ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajasi, hunarmandchilik, almashuv va savdoning tez rivojlanishi, sug'orma dehqonchilik va boshqalar) tashqi sabablar - kuchayib borayotgan siyosiy qarama-qarshiliklar va harbiy to'qnashuvlar ham ta'sir qildi.

Xulosa qilib aytganda, yozma manbalar, arxeologik ma'lumotlar va zamonaviy tarixiy tadqiqotlar asosida O'zbekiston hududida ilk davlatlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni quyidagi davrlar bilan belgilash mumkin:

1. Bronza davri. Miloddan avvalgi 2 ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmida va janubiy O'zbekistonda unchalik katta bo'lmagan dehqonchilik vohalari asosida (misol uchun, qadimgi Sherobod vohasi) ilk davlatchilik tizimiga o'tish davri.

2. Bronza davridan temir asriga o'tish davri. Miloddan avvalgi IX - VIII asrlar. Mayda davlat tashkilotlarning rivojlanishi va yirik harbiy-siyosiy uyushmalarning vujudga kelishi. Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm.

3. Ilk temir davri. Miloddan avvalgi VII - VI asrlar. Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya misolidagi yirik davlat uyushmalarining paydo bo'lishi.

Dovon davlati: O'rta Osiyo xalqi davlatchilik tarixi Dovon davlat tarixi bilan uzviy bog'liq. Bu davlat shu nom bilan Xitoy manbalarida tilga olinadi (boshka manbalarda «Parkana», deyilgan). Dovon davlati taxminan miloddan avvalgi III asrda paydo bulgan.

Dovon davlatini tadqiqotchilar qadimgi Farg'ona deb xisoblaydilar. Yozma manbalarga kura, «Dovon diyorida 70 tacha katta-kichik shaxar bor: axolisining soni bir necha yuz mingga etadi». Olimlar aytishicha, kadimgi Fargonada 300 ming axoli yashagan. Shaxarlarning ichida davlat poytaxti Ershi shaxri aloxida axamiyat kasb etgan. Miloddan avvalgi 104-101 yillarda Xitoy qo'shinlari Dovonga yurishlar qilib Ershi shaxrini qamal qiladilar. Shu paytda Qang davlati qo'shinlari yordamga kelib, xitoyliklarga qarshi kurashda faol qatnashdilar. Xitoy lashkarlari sulxga rozi bo'lib Dovonni tashlab chiqadilar. Dovon davlatining axolisi dexqonchilik bilan shugullangan. qadimshunoslarning tadqiqotlari natijasida Farg'onada kup sonli uy-qo'rgonlar, qishlok va shaxar xarobalari topib tekshirilgan. Ular ayrim xosildor

dexqonchilik tumanlarida joylashgan. qadimgi Farg'ona qishloq xo'jaligi, xunarmandchilik va binokorlik yuksak darajada rivojlangan o'lka edi. Dovon dexqonlari arpa, sholi, bug'doy va beda yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda kattga yutqqlarga erishganlar. Farg'ona uzining «samoviy» otlar zoti bilan mashxur bulgan. Xitoy imperatorining Dovonga bostirib kirishi sabablaridan birini yozma manba shunday ochib beradi: «Dovon davlatining Ershi shaxrida garoyib otlar mavjudligi xakida saroyga xabar keldi. Imperatorning «samoviy» otlarga ishtiyoki ortdi».

Dovon davlati Xitoy, Xindiston va boshqa Sharq mamlakatlari bilan bulgan xalqaro savdoda muhim urin tutgan. Miloddan avvalgi IV-III-II asrlarda qadimgi Xorazm mustaqil davlat bo'lib, Iskandar, Salavkiylar va Yunon-Baktriya davlatlari tarkibiga kirmagan. Bu xol Xorazmda uziga xos mahalliy davlatchilik tizimi rivojiga muxim omil bo'ldi.

Saklar, massagetlar va sug'dlar bizning qadimgi ajdodlarimizdir. Ularning yashash tarzlari va mehnat faoliyatlari haqida qadimgi Yunoniston va Rim olimlarining asarlarida ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, yunon tarixchisi Gerodot bunday deb yozgan «Massagetlarning barcha buyumlari, hatto nayza, o'q-yoy va oyboltalari ham oltin va misdan yasalgan. Bosh kiyimlari, kamarlari, otlarining yugan va uzangilari ham oltindan, ko'krak qalqonlari esa misdan bo'lgan. Ular oltin va mis konlari ko'p bo'lganligi sababli, kumush va temirni ishlatmaganlar. Yozma manbalarda ta'kidlanganidek, saklar – hozirgi Sirdaryo bo'ylarida, Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlarida, Farg'ona vodiysida, massagetlar — hozirgi Amudaryoning quyi oqimlari va unga tutash bo'lgan yerlarda, sug'dlar esa hozirgi Zarafshon va Qashqadaryo vohasida hayot kechirganlar. Ajdodlarimiz sug'orma dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

Xorazm davlati

Miloddan avvalgi VII asrda hozirgi O'zbekiston hududida Xorazm va Baqtriya davlatlari vujudga keldi. Qadimgi Xorazm davlatining markazlaridan biri Ko'zaliqir shahri bo'lgan. U qal'a va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Milodiy II–III asrlarda bunyod etilgan Tuproqqal'a Xorazm davlatining yirik shaharlaridan biri bo'lgan. Arxeologlar bu shahardagi shohlar saroyi xonalaridan birida boshiga toj kiygan va qo'lida burgut ushlagan podsho haykalini topganlar. Saroyda, shuningdek, «jangchilar zali», «g'alabalar zali» kabi zallarning bo'lganligi ham aniqlangan. Xorazm davlatida sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida Amudaryodan suv chiqarish uchun maxsus inshootlar barpo etilgan. Xorazm O'rta Osiyo hududidagi eng qadimiy davlatlardan biri bo'lib, aholisi o'troq va ko'chmanchi qabilalardan iborat bo'lgan. Uning hududi Amudaryoning quyi qismidan janubga tomon Murg'ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho'zilgan.

Xorazm davlati haqidagi ma'lumotlar yunon mualliflari, arab geograflarining asarlarida uchraydi. "Avesto"ning "Yasht" qismida Xorazm "Ming irmoqli daryo", "Ko'llar va o'tloqdarga boy o'lka" sifatida madh etiladi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday yozadi: "Xorazmliklar Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar. Bu Iskandarning O'rta osiyoga yurish qilishidan 980 yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmga podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari (ustidan) hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan 92 yil keyin bo'ldi".

Demak, 3 ming yil oldin ham Xorazmda turkiy qabilalar yashagan va davlat tizimi bo'lgan. Miloddan avvalgi ming yillik boshlariga aloqador "Amirobod madaniyati", quyi Amudaryo havzasidagi sun'iy sug'orish inshootlari tizimi (Gerodot qadimda Oks (Amu) daryosi bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish inshootlari barpo etilganligini yozadi) hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar - Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Jonbosqal'a va boshqalar Xorazm vohasidagi qadimiy davlatchilik belgilaridir.

Xorazm tarixini chuqur o'rgangan mashhur rus olimi S.P.Tolstov "Qadimgi Xorazm" kitobida antik Xorazm tarixini to'rt davrga bo'ladi:

1. Uy-joy devorlari bo'lgan shahriston madaniyati (miloddan avvalgi VI-IV asrlar)
2. Qanqa (Qang) madaniyati (miloddan avvalgi IV asr - milodiy I asr)
3. Kushonlar madaniyati (milodiy II – II asrlar)
4. Kushon-Afrig' o'tish madaniyati (milodiy Sh-V asrlar)

Bu davrlarga oid Amudaryoning o'ng sohilida 250 dan ziyod, so'l sohilida 60 ta qadimiy shahar va qishloqlar o'rni topilgan. Qanqaqal'a, Qo'shqal'a, Tuproqqal'a, Jingilja, Toshxirmon singari qal'a va istehkomlar o'rni bunga misol bo'la oladi.

Xitoyning Tan sulolasi davrida (milodiy VII-X asrlar) Xorazmda asosan turkiy qabilalar yashagan. Tanshu solnomasida shunday deyiladi: "Barcha turk elatlari ichida ho'kiz qo'shilgan arava faqat shu erda (Xorazm) uchraydi. Bu aravalarda savdogarlar turli viloyat va elatlarni aylanib, savdo qilib yuradilar." Bu o'rinda gap Xorazmning savdo-sotiq bilan kun kechiruvchi o'troq aholisi ustida ketyapti. Shu bilan birga Xorazm vohasiga yaqin cho'l va dashtlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador turkiy qabilalar yashagan.

Eron Axomaniylari shohi Kayxusrav (Kir, Kurush) (miloddan avvalgi 558-530 y.) Xorazm va unga tutash hududlarni bosib olgan. Xorazm miloddan avvalgi 6-5 asrlarda Axomaniylar davlatining 16-satrapligi (viloyati) tarkibiga kirgan. Lekin ko'chmanchi Sak (Massagetlar) qabilasi ustiga hujum qilganida Kayxusrav malika

To'marisdan engilib, halok bo'lgan. Xorazm o'z mustaqilligini tiklagan. Miloddan avvalgi III asrda esa u Qang davlati tarkibida bo'lgan.

Xorazm tarixining to'z afriq'iyalar sulolasi asoschisi Afrig'gacha (305 y.) bo'lgan davri haqida ma'lumotlar kam. Faqat qadimda Kayxusrav (mil.av. 1200-1140 y.), Saksafar (mil.av. 519- 517 y.), Farasman (mil.av. 329-320 y.), Xusrav (mil. av. 320 y.) singari xorazmshohlar bo'lganligi, Farasman miloddan avvalgi 328 yilning bahorida O'rta Osiyoga bostirib kirgan makedoniyalik Aleksandr (Iskandar) huzuriga muzokara uchun sovg'a-salomlar bilan kelganligi tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan.

Abu Rayhon Beruniy afriq'iyalar sulolasiga mansub xorazmshohlardan 22 tasining nomini keltirgan. Xorazm davlatining poytaxti dastlab Tuproqqal'a, 305 yildan keyin esa Kot (Kos) shahri bo'lgan. Miloddan avvalgi 4-3 asrlarda Xorazm iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalib, yirik sug'orish kanallari, yangi shahar va qal'alar barpo etilgan. Hunarmandchilik, san'at, ichki va tashqi savdo keng rivoj topgan. Milodiy IV-VIII asrlarda Xorazm yangi yuksalishni boshdan kechirdi. Burgutqal'a, Uyqal'a, Qumbosganqal'a kabi inshootlar ana shu davrlarda qurilgan. Xorazmning Etil (Volga) bo'yidan Markaziy Osiyo orqali Mo'g'uliston va Xitoyga hamda Eronga boriladigan savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi uning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etgan.

712 yili Xorazmni arablar bosib olgan. Xalifalikning Xurosondagi noibi Qutayba ibn Muslim xorazmliklarning tarixiy adabiyoti va madaniy merosini saqlab kelgan olimlarni qirg'in qilgan va quvib yuborgan. Shu sababli arablar istilosigacha bo'lgan davrdagi yozma tarixiy manbalar deyarli uchramaydi. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo-sotiq yuksak darajada rivojlangan. Tog'lardan qazib olingan qimmatbaho zumrad toshlarga ishlov berilib, har xil buyumlar tayyorlangan. Ular Eron, Xitoy, Hindiston, Misr singari mamlakatlarda sotilgan. Qimmatbaho metallardan tangalar zarb etilgan. Qadimgi Xorazm davlati o'zbek davlatchiligining ilk poydevori bo'lib, 2700 yillik tarixga ega. O'zbek davlatchiligining tamal toshi aynan sh hududdadir.

Baqtriya davlati

Baqtriya davlati hozirgi O'zbekistonning janubida joylashgan. Baqtra va Qiziltepa, Baqtriyaning yirik shaharlari bo'lgan. Qadimgi Baqtriya. Turli qadimgi tillar yozma manbalaridagi Baxdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxdi, Baxlika (hind manbalarida) yirik o'lka va davlatning nomidir. Baqtriya – bu Bahdi, Baqtra daryosi (hozirgi Balxob) nomi bilan bog'liq bo'lgan tushunchadir. Rim tarixchisi Kursiy Ruf bunday xabar qiladi: «Baqtra daryosi nomidan shahar va viloyatning nomi kelib chiqqan». Dastlabki bosqichda bu so'z yagona vohaning nomi bo'lib, keyingi davrlarda keng hududga tarqalgan Baqtriya tarixiy–madaniy viloyati, Baqtriya davlati (bir necha daryo vohalari va viloyatlari) ma'nolarida ishlatilgan. Hozir ham

O‘zbekistonning viloyatlari, asosan, daryo va shaharlar nomlari bilan belgilangan. Demak, Baqtra, Baqtriya so‘zlari – bu geografik tushunchalardir. «Baqtriyaliklar», «Baqtriya xalqi» so‘zlari qadimgi manbalarda tilga olinib, bitta xalqni yoki bir necha qarindosh qabilalarni birlashtirgan tushunchani beradi. Odatga ko‘ra, baqtriyaliklar yozma manbalarda bosqinchilarga (Ossuriya podshosi Nin, Kir II, Makedoniyalik Aleksandrga qarshi) turgan xalq sifatida nazarda tutilgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Baqtriya yerlari — bu Afg‘onistonning shimoli–sharqiy qismini, Janubiy Tojikiston, Surxondaryo viloyatini o‘z ichiga olgan. Baqtriya hududida eng qadimgi odamlar tosh davridan boshlab yoyilgan. O‘zbekiston hududiga qarashli Baqtriya qismida – Teshiktosh, Machay va Zarautsoy tosh asri yodgorliklari uzoq o‘tmish hayoti haqida dalolat beradi. Qadimgi Baqtriya hududi. O‘zbekistonda eng qadimgi paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan (aholi o‘troq dehqonchilik xo‘jaligiga ega) yodgorliklar Surxondaryo vohasidan topib tekshirilgan. Ular bronza davriga oiddir. Bronza davrida Baqtriya hududida davlatchilik tizimiga o‘tish jarayoni boshlangan. Mil.avv. 700–540 yillari qadimgi Baqtriya davlatining rivojlangan davri bo‘lib, uning hududiy chegaralari: Hinduqush tizmasi, Badaxshon va Hisor tizmasiga borib taqalgan (daryo vohalari – Balxob, Qunduz, Panj, Vaxsh, Kofirnixon, Surxon). Yuqorida ko‘rsatilgan hududiy chegaralari bo‘yicha Baqtriya davlati O‘rta Osiyoda rivojlangan dastlabki davlatlar ichida eng yirigi bo‘lgan. Qadimgi Baqtriya hududlariga O‘rta Amudaryoda Xorazm va sak–massagetlarning harbiy–siyosiy uyushmasiga tegishli o‘lkalar chegaradosh edi. Marg‘iyona qadimgi Baqtriya davlatining tarkibiga kirgan. Bundan yozma manbalar dalolat beradi. Podsho Doro I ning Marg‘iyonadagi qo‘zg‘olonni tor–mor qilishi haqida Behistun yozuvlaridagi quyidagi xulosa mavjud: “Mana nimalarni men Baqtriyada qildim”. Doro III davrida Baqtriya va Sug‘diyona birlashtirilgan o‘lka bo‘lib, unda Bess ismli satrap hokimlik qilgan. Marg‘iyona va Baqtriya aholisining urf–odatlari hamda madaniyati bir–biriga ancha o‘xshab rivoj topgan. Videvdat kitobida Baqtriya «eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan biri baland bayroqli, “go‘zal o‘lka” sifatida yoritilgan. So‘nggi yunon manbalarida Baqtriya – «ming shaharlar davlati» deb atalganidir.. Shuning uchun ham Gerodotning aytishicha, Misr va Bobil bilan bir qatorda Baqtriya Kir II ning harbiy yurishlariga to‘siq bo‘lib turgan. Shubhasiz, bu Baqtriyaning muhim harbiy va iqtisodiy ahamiyati haqida dalolat beradi (aholi, qudratli shaharlar va qal’alarning ko‘pligi, tabiiy ashyolarning boyligi, muhim markaziy savdo yo‘llarining chorrahasi, hunarmandchilikning rivojlanishi, piyoda va otliq qo‘shinlarning yurti va boshqalar Arxeologiya manbalar qadimgi Baqtriyada dastlabki shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonini aniqlash imkonini beradi. Baqtriyaning shahar markazlari (ular asosan ayrim viloyatlarda harbiy–ma‘muriy hunarmandchilik va savdo–sotiq ahamiyatga ega bo‘lgan) asrlar davomida harobalarga aylanib, yer ostida qolib ketgan. Shunday markazlardan Bolo Hisor (Baqtra), Oltindilyor, Qiziltepa va Boytudasht yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar

o‘tkazilgan. Bu shaharlar keng maydonlarda joylashib, qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Yodgorliklarda hom g‘isht va paxsadan qurilgan uy–joylar qazib ochilgan. Qurilish va hunarmandchilik ancha rivoj topgan. Shaharlarning bir qismida hukmdorlar qarorgohlari qal’a– qo‘rg‘onlar joylashgan. Baqtriya ayrim daryo vohalaridagi beshta viloyatni birlashtirgan. Surxon, Balxob, Kofirixon–Vaxsh, Panj, Ko‘kcha–Qunduz vohalari shular jumlasidandir. Surxon viloyatining markazi Qiziltepa bo‘lgan, Shimoliy Afg‘onistonda yirik shaharlar qoldiqlari – Bolo Hisor va Oltindilyorlar topib tekshirilgan. Bolo Hisor o‘rnida qadimgi Baqtra joylashgan. Bu shahar Gerodot va Ktesiyning ta’kidlashicha, Baqtriyaning markazi edi. Ktesiyning «Persika» asarida Baqtriyaning juda ko‘p harbiy istehkomlari va qal’alari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Hozirgi kunda Baqtriya tuprog‘idan mil.avv. I ming yillikning birinchi yarmiga oid 240 dan ortiq uy–qo‘rg‘onlar, qal’alar va shaharlar harobalari topib tekshirilgan. Jumladan, Surxon vohasida joylashgan Kuchuktepa, Talashqon, Jondavlat, Bandixon, Qizilcha va Sho‘rtepa yodgorliklarini aytib o‘tish lozim. Ular devorlar va mudofaa burjlar bilan mustahkamlangan qal’alar yoki to‘rtburchak shaklida qurilgan uy–qo‘rg‘onlardir.

Sug‘d davlati

Zarafshon va Qashqadaryo vohasi atrofidagi yerlar Sug‘diyona deb atalgan. Keyinchalik bu hududda Sug‘d davlati tashkil topdi. Sug‘d, So‘g‘d, Sug‘ud – Markaziy Osiyogi qadimiy tarixiy-madaniy viloyat. Ilk bor miloddan avval VII-VI asrlarda qadimiy „Avesto“da tilga olingan. Bu nom 20-asr boshlarigacha saqlangan. Turli manbalardagi So‘g‘da, So‘g‘uda, So‘g‘diyona nomlarining kelib chiqishi va ularning ma’nosi hozircha noma’lum „Sug‘d“ so‘zining ma’nosi fanda har xil talqin qilib kelinadi. Masalan, So‘ch —So‘z – „kuymoq, yonmoq, porlamoq“ deb izohlangan. Bundan Sug‘dni „Muqaddas ilohiy olov ([Zardushtiylik](#) tasavvuriga ko‘ra) bilan poklangan yer“ kabi ma’noda talqin etishga harakat qilingan (V. Tomashek). Yana bir izohga ko‘ra, „Sug‘d“ so‘zi sernam, unumdor yer deb tushuniladi. Bunga hozirga qadar pastlik, suv yig‘iladigan yer „S, Sug‘ut“ deb nomlanishini dalil qilib ko‘rsatiladi. Avestoda Sug‘d mamlakat nomi sifatida bir marta uchraydi. „Ardivisura Yashti“ („Obon Yasht“) va Ardvi (Amudaryo) Ishkata, Paruta, Mouri, Suguda va Xvarazm tomon hayotbaxsh suvlarini eltadi, deya ta’kidlanadi. Avestoning Videvdat naskida esa Axuramazda yaratgan ezgu yurtlardan biri Gava deyiladi va u yerda sug‘dlar yashaydi deb ko‘rsatiladi. So‘g‘diyoning markazi Maroqanda shahri bo‘lgan. Maroqandaning qoldiqlari – bu hozirgi Afrosiyob shahar xarobalaridir. Ahamoniylar davrida bu shaharning maydoni 219 gektardan iborat bo‘lib, u mudofaa devorlari bilan o‘ralgan edi. Yunon tarixchilarining ma’lumotlariga qaraganda, Maroqandaning uzunligi 11 km ga yaqin bo‘lgan tashqi devori va qo‘rg‘oni bo‘lgan. So‘g‘diyoning markaziy shaharlari qatoriga Qarshi atrofidagi Yerqo‘rg‘on, Qashqadaryoning sharqiy qismidagi Uzunqir yodgorliklarini ham kiritish mumkin. Bu

yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimgi So‘g‘diyona aholisining xo‘jaligi va madaniyatini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. „Avesto“ning „Yasht“ kitobida tilga olingan „So‘g‘d makoni Gava“ - So‘g‘diyoning eng qadimgi viloyati bo‘lishi mumkin. Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra, Gava (Gau) – „buqa“, „poda“ degan ma‘nolarini bildirib, u Qashqadaryo vohasi bilan bog‘lanadi. Bu so‘z viloyatning juda ko‘p geografik nomlarida takrorlanib saqlangan. Qadimgi yunon tarixshunoslari So‘g‘diyona ni Baqtriya yoki sak-massagetlariga nisbatan kamroq tilga olganlar. Makedoniyalik Iskandar yurishlaridan so‘ng So‘g‘diyona haqida ma‘lumotlar ancha to‘liqroq bo‘lib, kengayib boradi So‘g‘diyona – bu Zarafshon, Qashqadaryo vohalarida joylashib, janubi-sharqda Baqtriya va shimoli-g‘arbda Xorazm bilan chegaradosh bo‘lgan. Qadimgi zamonlarda ham So‘g‘diyona muhim savdo yo‘llarining chorrahasida joylashgan. So‘g‘diyona haqida „Avesto“, Gerodot va Ahamoniylar davri yozuvlarida ma‘lumotlar berilgan. Aholi, asosan, dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Dehqonchilik sun‘iy sug‘orishga asoslangan. Afrosiyob (hozirgi Samarqand shahrining sharqiy qismi) markaziy shahar bo‘lgan. Ma‘lumki, So‘g‘d miloddan avvalgi I mingyillikning boshlarida O‘rta Osiyoda shakllana boshlagan ilk davlatlar („shahar – davlat“, „voha davlati“) dan biri sifatida qadimiy eroniy bitiklarda Suguda, yunon manbalarida Sogdiana shaklida tilga olinadi Ta‘kidlash joizki, bugungi kun tarixshunosligida Sug‘d konfederatsiyasi chegaralari, ayniqsa janubiy chegaralari to‘g‘risida bahslar ko‘zga tashlanadi. V.A.Livshits o‘z tadqiqotlarida Strabon ma‘lumotlari asosida Sug‘dning janubiy chegarasi Oksgacha (Waxsu – Amudaryo) va shimolda esa Yaksartning yuqori oqimigacha (qadimgi eroniy tilda Yax sarta – «Tez oquvchi (?)», Sirdaryo) bo‘lgan deb keltiradi. O‘rta asr arab-fors tarixchi va sayyohlari Sug‘d deb Zarafshon vohasining markazidagi Samarqandni yoki butun vohani hamda janubiy Sug‘d deb Qashqadaryoni (Kesh va Naxshab) keltiradilar. Aslida Sug‘d geografik jihatdan bugungi O‘zbekiston hududlarining Zarafshan va Qashqadaryo hududlari bo‘ylab joylashgan Samarqand, Buxoro, Kesh, Naxshab vohalaridan iborat markaziy bo‘g‘inini tashkil etadi. Ammo manbalarda V – VIII asrlarga oid Sug‘dning geografik hududlari haqida ba‘zan bir-birini istisno etuvchi fikrlar etib kelgan. Masalan, xitoy rohibi Syuan-tszan (629) „Sug‘d“ tushunchasini juda keng hududlarga nisbatan tadbiiq etgan⁶. Uning ma‘lumotlaridan ayon bo‘lishicha, Chu daryosi vodiysidan to Qarshi vohasini Sherobod vohasidan ajratib turuvchi tog‘ dovonidagi Temir darvozagacha (Darband) „Sug‘d“ deb atalgan. 629 – 630 yillarda O‘rta Osiyo orqali o‘tgan Syuan-tszan bu hududning geografiyasi to‘g‘risida muhim ma‘lumotlar yozib qoldirgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR References

1. Karim Shoniyozov. „O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni“. T., „Sharq“, 2001, 200—266
2. Ahmadali Asqarov. „O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi“. T., „Universitet“, 2007, 139-158-165 bet. Ал-Комил. VII/279.

3. R.H.Murtazayeva. “O‘zbekiston tarixi”. T., “O‘AJBNT”, 2003, 380-bet.
4. Баходир Эшов. “Ўзбекистон давлатчилиги тарихи”. T., “Маърифат”, 2009, 110-бет.
5. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. T., “Sharq”, 1998, 3-12-13 bet.
6. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. “Vatan tarixi”. 1-qism. T., “Sharq”, 2010, 299-320-bet.

